BOLALARDA OVQATLANIŞ XULQI MUAMMOLARINING QAROVÇILARNING YONDAŞUVIGA BOĞLIQLIGI

Xolmatov Baxriddin Muratbekoviç,
Qöqon universiteti Andijon filiali kafedra assistenti
Xolmatova Nurxon Olimovna,
Andijon davlat tibbiyot instituti kafedra assistenti
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340007

Annotasiya. Uşbu maqolada bolalarning ovqatlaniş xulqi muammolarining qarovçilarning(ota-onalarvaparvarişlovçilarning)yondaşuvlarigaboğliqligiörganilgan. Bolalar örtasida ovqatlaniş muammolari, ayniqsa, özbek mentalitetiga mansub oilalar orasida turliça qarovçi yondaşuvlar va usullarni qöllaş bilan boğliq bölib, bu muammolar bolaning kelajakdagi soğliğiga ta'sir körsatadi. Tadqiqotda qarovçilarning turli xil yondaşuvlari, özlarining ruhiy emosional kayfiyatidan kelib çiqqan holda yoki oilaga oid qadriyatlar şakllanişiga köra şoşilinç va majburiy ovqatlantiriş kabi muammolar haqida söz yuritiladi. Uşbu keltirilgan yondaşuvlar bolalarning ovqatlaniş xulqi va psixologik holatiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotning maqsadi bolalarga nisbatan qarovçilarning yondaşuvlarining xulq-atvor muammolarini qanday qilib yengillaştiriş mumkinligini tahlil qiliş va ota-onalar uçun samarali yondaşuvlarni işlab çiqişdir. Ma'lumotlar töplaşda turli yoşdagi bolalar, ularning oilaviy şaroitlari va qarovçilarning xulq-atvorlari inobatga olingan. Natijalar, bolalarning ovqatlaniş xulqi va jismoniy rivojlaniş muammolari örtasida boğliqlik borligiga va bu borada qarovçilarning muhim roli borligini körsatadi.

Kalit sözlar. Ovqatlaniş xulqi, qarovçining yondaşuvlari, majburiy ovqatlantiriş, jismoniy rivojlaniş

Аннотация. В данной статье исследуется связь между проблемами пищевого поведения детей и подходами их опекунов (родителей и воспитателей). Проблемы пищевого поведения у детей, особенно в семьях, принадлежащих к узбекскому менталитету, связаны с применением различных подходов и методов опекунов, что влияет на будущее здоровье ребенка. В исследовании рассматриваются подходы опекунов, обусловленные их психоэмоциональным состоянием или семейными ценностями, такие как принудительное и торопливое кормление. Эти подходы напрямую влияют на пищевое поведение и психологическое состояние детей. Цель исследования - проанализировать, как можно облегчить проблемы пищевого поведения детей, связанные с подходами опекунов, и разработать эффективные методы для родителей. Для сбора данных были учтены дети разных возрастов, их семейные условия и поведение опекунов. Результаты показывают связь между пищевым поведением детей и проблемами физического развития, а также подчеркивают важную роль опекунов в этом процессе.

Ключевые слова: Пищевое поведение, подходы опекунов, принудительное кормление, физическое развитие.

Abstract. The digital transformation of school education requires the development of not only technical skills but also digital culture and moral competencies among students. The aim of this study is to identify the socio-pedagogical foundations for developing these competencies within a pedagogical cluster through cooperation among schools, families, mahallas, and higher education institutions, and to propose a conceptual model. The study employs methods of regulatory document analysis, synthesis of official statistical data, review of scientific literature, and conceptual generalization. The analysis shows that between 2021 and 2025, the proportion of internet users aged 10 and above increased from 76.6% to 94.2%. However, problems related to the technical provision of schools and internet access remain. Consequently, the focus of digital inequality is shifting from access availability to the quality of digital resource use and its educational content. The article proposes an original conceptual model covering macro, meso, and micro levels and defining the roles of pedagogical cluster stakeholders. The model has not been empirically validated and is considered a theoretical basis for future practical research.

Keywords: Eating behavior, caregiver approaches, forced feeding, physical development.


Kiriş

20-45% soğlom rivojlanayotgan bolalar ota-onalaridan biri yoki bir neça ovqatlaniş xulqi yoki ovqatlantiriş bilan boğliq taşvişlarni bildirgan va bu raqamlar örtaça darajadagi jismoniy rivojlanişdagi bolalar uçun taqdim etilgan [1-2]. Afsuski 40-80% surunkali kasalliklar yoki rivojlaniş nuqsonlariga ega bolalarning ota-onalari ovqatlaniş bilan boğliq muammolarni ta'kidlaşgan [2-4]. Bular orasida 5-25% bolalar yoşiga qarab, ovqatni rad etiş muammosini boşdan keçiradi va bu odatda bolalar 1 yoşga bölgan bolalar orasida kuzatiladi. 20-50% bolalar orasida picky eating Ovqatga tanqidiy yondaşiş (picky eating) muammosi esa 20-50% bolalar orasida qayd etilgan bölsa, bu xulq köpinça bolaning stress, qayğu yoki kayfiyatning özgarişi bilan boğliq holda rivojlanadi. Yana şuni ta'kidlaş kerakki bolalar ovqatlanişining soğlom bölişi uçun har xil oziq-ovqatlarning teng va doimiy tarzda taqdim etilişi muhim bölsada. Dunyoda 30-40% bolalar ozuqa moddalari yetişmovçiligi tufayli muammolarni boşdan keçiradi, ya'ni ular köpinça meva, sabzavotlar va boşqa zarur ozuqaviy moddalarni kam iste'mol qiladilar [3-5]. Ota-onalar bolalarining ovqatlaniş xulqlariga ta'siri tuğilişdan oldin, perinatal ta'sirlar orqali boşlanadi. Homila birinçi marta ovqatlaniş tajribasini amniotik suyuqlik orqali oladi, bu suyuqlik ona tomonidan iste'mol qilingan ovqatlarga boğliqdir. Tadqiqotlar şuni körsatdiki, homilaning lazzatga ta'siri, bolalikda va ehtimol, bolalik davrida şunga öxşaş lazzatdagi ovqatlarni qabul qilişni oşiradi [6]. Sut bilan ovqatlantirişda, ona sutining lazzat tarkibi ona diyetasiga boğliq bölişi mumkin, bunda

sut formulasining lazzati vaqt ötişi bilan özgarmaydi [7]. Bolalarga beriladigan sun'iy aralaşmalarning gidrolizlangan kazeinga boy bölişi va ularning ta'mi aççiq, kislotali va şör bölişi, keyinçalik yangi ovqatlarni tezroq qabul qilişini osonlaştiradi [7, 8]. Şişa bilan ovqatlantirişda, ona/qarindoşlar bolaning qança sut içişi va qançalik yegani ustidan nazorat qiladi, bu esa ona/qarindoşni bolaning içki oçlik va töqlik signaliga qaramay ovqatlantirişga undaşi mumkinligini körsatadi [9]. Qöşimça ovqat berişda ota-onalarning bolalarining nima, qaçon va qança ovqatlanişini nazorat qiliş yoki özgartiriş uçun foydalanadigan strategiyalar (masalan, bolani köproq ovqatlanişga majburlaş, ba'zi ovqatlarni çeklaş yoki ovqat iste'molini nazorat qiliş) bolada ovqat neofobiyasini kelib çiqişiga olib keladi, bu öz navbatida bolada jismoniy rivojlanişdan ortda qoliş, kamqonlik kabi muammolarga sabab böladi [10]. Bu yondaşuvlar oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, masalan, oila daromadi va ta'lim, madaniy kelib çiqişi, şaxsiyat xususiyatlari va psixologik salomatlik bilan uzviy boğliqdir [11]. Bundan taşqari, ota-onalar özlarining ovqatlantiriş amallarini bolalarining temperamentiga, vazniga, ovqatlaniş xulqlariga va bu xususiyatlar haqidagi qaraşlari va e'tiqodlariga qarab moslaştiradilar [11, 12].

Adabiyotlar tahlili

Uşbu tadqiqotda, Andijon Viloyat köp tarmoqli bolalar klinikasining turli bölimlarida davolanayotgan 6 oydan 5 yoşgaça bolalari bölgan onalarga savolnoma yuborildi (1-diagramma). Savolnoma maxsus Veb-sayt Google Forms platformasida tuzilgan (veb-saytni yaratişda HTML, CSS, JavaScript va Google Forms API işlatilgan bölib, barça ma'lumotlar markazlaşgan holda yiğiladi va tahlil qiliş uçun qulay holatda taqdim etiladi) va unda bolalarning ovqatlaniş xulqlari, ota-onalarning ovqatlantiriş amallari, va bolalar bilan ovqatlaniş jarayonidagi özaro ta'sirni ölçaşga yönaltirilgan savollar mavjud bölib, Savolnoma javoblarining tahlili va baholanişidan söng, onalarning bolalariga ovqat beriş jarayoni bölim oşxonasida bevosita kuzatildi.



***1-diagramma**. Yoş va jins böyiça tekşirilgan bolalar taqsimoti*

Bu kuzatişlar bolalar ovqatlaniş xulqlarini va ota-onalarining ovqatlantiriş

amallarini real şaroitlarda tuşunişga yordam berdi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar statistik işlov berilgan va barça natijalar tizimli ravişda tahlil qilingan. Statistik tahlil uçun mos usullar qöllanilib, ma'lumotlar jadvallar va grafikalar orqali taqdim etildi. Tahlilda taqqoslaşlar va korrelyatsiyalar örganildi, bu bolalar ovqatlaniş xulqlari va ota-onalarning ovqatlantiriş uslublari örtasidagi aloqalarni aniqroq körsatdi. Ma'lumotlar töplaş jarayonida iştirokçilarni öz xohişiga köra tadqiqotda iştirok etişlari söraldi va şaxsiy ma'lumotlar maxfiyligiga töliq hurmat körsatilgan.Tadqiqotda iştirok etgan onalarga heç qanday moliyaviy takliflar yoki mukofotlar berilmagan. Tadqiqot ilmiy maqsadlar uçun ötkazilgan va barça iştirokçilarga öz vaqtida ma'lumotlar berildi. Savolnoma uçun Child Feeding Questionnaire (CFQ) [13]. Children's Eating Behavior Questionnaire (CEBQ) [14]. manbalaridan foydalanildi.

1-jadval

Parvarişlovçi ovqatlantiriş uslubi uçun xavf tuğdiruvçi omillar

Xususiyat	Mumkin bölgan salbiy natija
Majburlab ovqatlantiriş	Bola ovqatlanişga qarşi böladi yoki ovqatda notöğri xulq-atvorlarni rivojlantiradi.
Ovqatlaniş vaqtidagi bezovtalik, tartibsizlik yoki stress	Bola uçun tegişli ovqat yoki ovqatlaniş bilan boğliq ijtimoiy odatlar yetişmaydi.
Mustaqil ovqatlantirişni töğri amalga oşirmaslik	Bola töğri ovqatlantiriş könikmalarini örganiş imkoniyatiga ega bölmaydi.
Ovqatlaniş vaqtida çalğişlar	Bola/ota-ona ovqatlanişda çalğişlarga (televideniye, elektronika) tayanadi.
Ijobiy mustahkamlaş	Parvarişlovçi bola yiğlaganda mukofotlab ovqatlantiradi; bola xulqi notöğri mustahkamlanadi.
Salbiy mustahkamlaş	Parvarişlovçi ovqatni bola öynaşni boşlasa olib qöyadi; bola xulqi notöğri mustahkamlanadi.


2-jadval

Parvarişlovçi ovqatlantiriş uslublari

Uslub	Xususiyatlar	Özgarişlar
Avtoritar	Majburlaş, kuçli boşqaruv, aniq kutişlar örnatiş, javobgarlikni taqsimlaş	Semiriş xavfi, ortiqça ovqatlaniş, meva va sabzavot kam iste'mol qiliş
Avtoritet	Farzandning ehtiyojlariga sezgirlik, çegaralar örnatiş, qöllab-quvvatlaş va erkinlik beradi	Farzandda töyimli oziq-ovqatlar köproq iste'mol qilinadi, zararli ovqatlar kamroq taklif qiladi
Köngilçan	Farzandning talablariga özini moslaştiradi, maxsus ovqatlar tayyorlaydi, yoğni çegaralaydi	Bolalar istagiga qarab ovqatlantiriş, kam vazn yoki semiriş xavfi
Beparvo	Ovqat tayyorlaşga diqqat qilmaslik, yöriqnomalar va çeklovlar örnatilmaydi	Semiriş xavfi, bir xil turdagi ovqatlar va tartibsiz ovqatlaniş

Muhokama

Uşbu maqoladagi tadqiqot natijalari bolalarning ovqatlaniş xulqlari va ota-onalarning ovqatlantiriş amallari va yondaşuvlari örtasida murakkab va köp omilli boğliqlik mavjudligi borligini körsatdi. Deyarli barça körsatkiçlardagi onalarning bergan javoblari orasida “kamdan-kam”, “ba’zida”, “köpinça” va “doimo” javob turlari örtasida keskin ustunlik kuzatilmadi. Bu holat ota-onalar yondaşuvining bir yoqlama emasligini, balki aralaş xarakterga ega ekanligini taqozo etadi [15]. Tadqiqotda ovqatlaniş çastotasi, televizor yoki telefon orqali ovqatlantiriş, ovqat miqdorini nazorat qiliş kabi asosiy xulqiy omillar deyarli teng taqsimlanganligi aniqlangan. Xususan, “doimo” va “köpinça” javoblari 25–27% atrofida bölib, bu ota-onalar orasida bir vaqtning özida ham nazorat va ham erkinlik elementlari bir vaqtda mavjudligini körsatadi. Uşbu natijalar zamonaviy tadqiqotlardagi ta’kidlanayotgan “avtoritar va erkin uslublar kombinatsiyasi” konsepsiyasiga mos keladi [16] (2-diagramma).




2-diagramma. *Öğil va qiz bolalarning ovqatlaniş soni haqidagi ma’lumot*

Tadqiqotda bizning e’tiborimizni tortgan muhim narsa şu böldiki, “doimo” (27%) va “köpinça” (24.5%) javoblarining yuqori uluşi ota-onalar orasida majburlovçi yondaşuvlar hali ham keng tarqalganligini körsatadi.[17]. Bu bolaning tabiiy iştaha mexanizmlariga salbiy ta’sir qilib ularda tanlab ovqatlaniş, ovqatga boğliq yulqiy buzilişlar va ayniqsa oşqozon sekresiya jarayonining işdan çiqişiga sabab bölişi mumkin. Şuningdek, “rad etsa ham yediriş”, “tugatişini talab qiliş” kabi amallar ham yuqori çastotada uçraşi aniqlangan. Bu holat ota-onalarning bolani nazorat qilişga bölgan intilişining yuqoriligini körsatadi. Biroq, yuqoridagi körsatkiçlarga parallel ravişda “özi yeyişiga ruxsat beriş”, “ovqat tanlaşda erkinlik beriş” kabi körsatkiçlarning ham 25-27% atrofida bölişi ota-onalar orasida erkin elementlarning ham mavjudligini bildiradi.[18]. Demak, köpçilik adabiyotlarda keltirilişiça amaliyotda qat’iy bir uslub emas, balki gibrid model şakllanganligi körinib turibdi. Hozirgi davrning dolzarb muammolarida biri bölib kelayotgan telefon va televizor orqali ovqatlantiriş körsatkiçlari ham muhim natijalardan biri hisoblanadi. “Doimo” va “köpinça” javoblari jami

50% ga yaqinlaşişi bolalarda “çalğituvçi ovqatlaniş”keng tarqalganligini körsatadi. Bu uzoq muddatda ortiqça ovqat iste’moli bölişini va bu holat bolalarda semizlik xavfini oşirişi mumkinligi bilan ahamiyatlidir.[19]. Jins va yoş guruhlari kesimida tahlil qilinganda, öğil bolalarda 1–3 yoş guruhi ustun (45.59%), qizlarda esa yoş guruhlari nisbatan teng taqsimlanganligi kuzatildi.

Bu esa rivojlaniş davriga xos ovqatlaniş xulqlari şakllanişida yoş omilining muhimligini körsatadi. Bundan taşqari, bolalarning ovqatga nisbatan xulqiy reaksiyalari - ovqatni rad etiş, yangi ovqatlarni sinaş, ovqatni oğizda uzoq uşlab turiş kabi holatlar ham deyarli barça javob variantlarida bir tekis taqsimlangan. Bu bolalarning ovqatlaniş xulqi barqaror emasligini va taşqi omillarga, ayniqsa ota-onalarning yondaşuviga sezgir ekanligini körsatadi. (3-rasm). Umuman olganda, olingan natijalar şuni körsatadiki, özbek oilalarida bolalarni ovqatlantiriş jarayoni an’anaviy (nazoratga asoslangan) va zamonaviy (erkinlikka asoslangan) yondaşuvlar örtasida şakllanayotgan ötiş davrini aks ettiradi [20]. Uşbu gibrid model qisqa muddatda moslaşuvçanlikni ta’minlasa-da, uzoq muddatda bolalarning ovqatlaniş xulqiga nisbatan noaniq va barqaror bölmagan natijalarga olib kelişi mumkin. Şu sababli, kelgusida ota-onalar uçun ilmiy asoslangan, muvozanatli yondaşuvlarni tarğib qiliş, majburlaş va distraksion ovqatlantirişni kamaytiriş böyiça ta’lim dasturlarini işlab çiqiş muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa



Tadqiqot natijalari şuni körsatdiki, özbek oilalarida ota-onalar bolalarni ovqatlantirişda aralaş yondaşuvdan foydalanadi: afsuski ovqatni majburlab beriş hali ham keng tarqalgan bölib, bu bolaning tabiiy iştaha va xulqiga salbiy ta’sir körsatişi mumkin. Şu bilan birga, erkinlik beruvçi usullar (25-27%) ham rivojlanib borişi

oilalarda ovqatlanişga zamonaviy yondaşuvlar ham kirib kelayotganidan dalolat beradi. Çalğituvçi omillar esa, ayniqsa telefon, TV orqali ovqatlantiriş turi eng baland körsatkiçda uçrab, bu ongli ovqatlanişning buzilişiga va oqibatda semizlik xavfini oşirişiga sabab böladi. Bolalar populyatsiyasidan ayniqsa, 1-3 yoş davri ovqatlaniş xulqining şakllanişida muhim davr ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, bolalar ovqatlanişi ota-onalar yondaşuviga juda sezgir bölib, uşbu tizim an'anaviy va zamonaviy usullar örtasidagi ötiş bosqiçidagi jarayon bölişi mumkin. Şu bois, ilmiy asoslangan va muvozanatli yondaşuvlarni tarğib qiliş bolalar orasida ovqatlanişga boğliq xulqiy buzilişlarning oldini olişga sabab böladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Field D, Garland M, Williams K. Correlates of specific childhood feeding problems. J Paediatr Child Health, 2016.

2. Carruth BR, Ziegler PJ, Gordon A, et al. Prevalence of picky eaters among infants and toddlers and their caregivers' decisions about offering a new food. J Am Diet Assoc, 2016.

3.World Health Organization. https://www.who.int

4.Reau NR, Senturia YD, Lebailly SA, et al. Infant and toddler feeding patterns and problems: normative data and a new direction. Pediatric Practice Research Group. J Dev Behav Pediatr, 2016.

5. National Institutes of Health (NIH) https://www.nih.gov

6. Bryant-Waugh R, Markham L, Kreipe RE, et al. Feeding and eating disorders in childhood. Int J Eat Disord, 2016.

7. Schrempft S.; van Jaarsveld C.H.M.; Fisher A.; Herle M.; Smith A.D.; Fildes A.; Llewellyn C.H. Variation in the Heritability of Child Body Mass Index by Obesogenic Home Environment. JAMA Pediatr, 2018.

8. Bouchard C. Gene-Environment Interactions in the Etiology of Obesity: Defining the Fundamentals. Obesity, 2008.

9. Russell C.G.; Russell A. Biological and Psychosocial Processes in the Development of Children's Appetitive Traits: Insights from Developmental Theory and Research. Nutrients, 2018.

10. de Barse LM, Jansen PW, Edelson-Fries LR, et al. Infant feeding and child fussy eating: the Generation R Study. Appetite, 2017.

11. Johnson S, Matthews R, Draper ES, et al. Eating difficulties in children born late and moderately preterm at 2 y of age: a prospective population-based cohort study. Am J Clin Nutr, 2016.

12. Elkins A, Zickgraf H.F. Picky eating and food neophobia: resemblance and agreement in parent/young adult dyads. Appetite 2018.

13.Vasiou A, Kassis W, Krasanaki A, Aksoy D, Favre CA, Tantaros S. Exploring Parenting Styles Patterns and Children's Socio-Emotional Skills. Children, 2023.

14. Павловская Е. В. Нарушения приема пищи у детей раннего и дошкольного возраста. Фарматека, 2019.

15. Авдулова Т. П., Недашковская В. Г. Нарушения пищевого поведения у детей в контексте эмоционального отношения матерей. Психологические исследования, 2022.

16. Wardle J., Cooke L. The impact of parental feeding practices on children's eating behaviors. Appetite, 2001.

17. Wardle J., Guthrie C. A., Sanderso S., Rapoport L. The Children's Eating Behaviour Questionnaire; Validity and reliability. Appetite, 2001.

18.Feeding Practices and Child Weight Vaughn, A., et al. (2016).

19. Taylor CM, Steer CD, Hays NP, et al. Growth and body composition in children who are picky eaters: a longitudinal view. Eur J Clin Nutr, 2018.

20. Emmett PM, Hays NP, Taylor CM. Antecedents of picky eating behaviour in young children. Appetite, 2018.